

Manzura

"Yengilaman"

Visit "[Yengilaman](#)" on MotoLyrics.com

Qayg'uli alam, dil to'la nolam, nolam.
Chunki sen bugun ketasan o'zga bilan,
Ayriliqning azobiga dosh berolmayman
Qalbim yig'lar, seni so'rar.

Sevaman degin, men ishonaman yana
Mayli aldagin roziman hammasiga.
Faqat yonimda bo'lsang bas
Boshqa hech narsa muhim emas, kerak emas

Yengilaman, yuragimda asrab muhabbating
Men bilaman, sen ham o'zgani sevolmasliging.
Sog'inaman, bu juda qiyin
Aytgin netayin?

Oq-qora hayot, qalbim bog'lari barbod
Sevgi gullari endi gullamas nahot?
Kuz faslidek to'kiladi baxtning barglari
Xazonlari, armonlari

Unut demagin, unutishga yo'q mador
Baxtsiz sevgidan endi qalbim yarador.
Olib ketar xotiralar yana sen tomon
Yuguraman, yana bejon...

Yengilaman, yuragimda asrab muhabbating
Men bilaman, sen ham o'zgani sevolmasliging.
Sog'inaman, bu juda qiyin
Aytgin netayin?

Visit [Manzura](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.